









9-dars. NAZORAT ISHI. LOYIHA ISHLARI TAQDIMOTI

Scratch muhitida amalga oshiriladigan loyiha turlari:

Loyiha turi	Loyiha nomi va g'oyasi	Loyiha namunasi
Musiqiy	<p>Musiqali kamalak</p> <p>7 xil kamalak rangidagi spraytlarga do, re, mi, fa, sol, lya, si kabi 7 ta musiqiy nota joylashtirilgan. Mushuk ranglarga tegsa, mos ravishda unga o'rnatilgan nota ovozi jaranglaydi va sprayt rangi o'zgaradi. Mushuk bulutga tegsa, baraban ovozi, quyoshga tekkanda esa boshqa bir nota ovozi yangraydi.</p>	
Interfaol o'yin	<p>"Mushuk-sichqon" o'yini</p> <p>Sichqon labirintdan o'tib, pishloqqa yetib borishi kerak. Labirint orqali o'tayotganda, mushuk sichqonchani pishloqqa yetib borishiga to'sqinlik qiladi. O'yin qahramonlari 3 ta: mushuk, sichqon va pishloq spraytlaridan iborat. Agar sichqon yo'lda qora devorga yoki mushukka duch kelsa, u holda "Voy!!!" degan xabar chiqadi va sichqon yana yashil aylana ichiga joylashib oladi. Agar u idishdagi pishloqqa yetib borsa, "Nyam-nyam!!!" deya ovoz chiqaradi. Sahna uchun rasmdagi kabi labirint chizish lozim.</p>	    <p>O'yin tugadi</p>

Loyiha turi	Loyiha nomi va g'oyasi	Loyiha namunasi
Dialog (muloqot) elementli	<p>Men hisoblashni bilaman</p> <p>Mushuk foydalanuvchi bilan quyidagi dialog asosida muloqotga kirishadi va foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan 2 ta son ustida $+, -, *, /$ kabi amallarni bajaradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> – Salom! – Ismingiz nima? – Masalan, NAFISA. – NAFISA, ishonasizmi, men hisoblashni bilaman! – Birinchi sonni kriting: A = – Masalan, 12. – Ikkinci sonni kriting: B = – Masalan, 24. – Javoblarni ko'rish uchun ifodalar joylashgan katakchalarni tanlang! – $A + B$; $A - B$; $A * B$; A / B yozuvli katakchalarni tanlash orqali sahnada hisoblash natijalari ko'rindi. 	
Grafika	<p>Abstraksiya</p> <p>Mushuk abstraksion ko'rinishdagi chiziqlarni chizadi.</p>	
Animations	<p>Animatsiya</p> <p>Sahnada 2 ta fil bo'lib, 1 ta qush uchib yuribdi. Fillarning biri xartumidan suv purkab harakatlanadi, ikkinchisi esa sahnada shunchaki yuradi. Uchib yurgan qush fillardan birortasiga tegib ketsa, ularning rangi oqaradi. Ma'lum vaqt o'tib, fillarning rangi yana o'z holiga qaytadi.</p>	

Topshiriq. Yuqorida keltirilgan har bir ssenariyiga mos loyihalarni yaratting.